

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEGMATOV QUVONCHBEK MUXTAROVICH

**FILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI CHET TILI
BO'YICHA O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH (nemis tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

UDK: 811.112.2.81.13:11

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Begmatov Quvonchbek Muxtarovich

Filologik oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tili bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish (nemis tili misolida) 3

Бегматов Кувончбек Мухтарович

Формирование профессиональных компетенций преподавателей второго иностранного языка в филологических вузах (на примере немецкого языка)..... 27

Begmatov Kuvonchbek Mukhtarovich

Formation of professional competences of second foreign language teachers in philological higher education institutions (as an example of German language) 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEGMATOV QUVONCHBEK MUXTAROVICH

**FILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI CHET TILI
BO'YICHA O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH (nemis tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PHD/Ped2531 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchi.uz hamda "ZiyoNet" axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ixomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Saydaliyev Saydumar Saydaliyevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "21" iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (01584 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "11" iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil "10" iyul dagi № 82 raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishi va rivojlanishi chet tillarni kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, kasbiy malakasini oshirishga bo‘lgan qiziqishni va talabni oshirdi. Shu munosabat bilan jahonning Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarida chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashning umumiy madaniy, madaniyatlararo va filologik darajasiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar bir necha bor oshib bormoqda va ularni kasbiy tayyorlash usullarini takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Bu borada ta‘limning asosiy vazifalarini to‘liq bajaradigan, shu jumladan, kasbiy kompetentligi yuqori bo‘lgan malakali o‘qituvchilar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarda erkin muloqotga kirisha oladigan mutaxassislariga talabning kuchayib borishi jarayonida oliy ta‘lim mutaxassisliklarida o‘qitishning ilg‘or usullarini joriy qilish, o‘qituvchilarning kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarining hamda ularning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tajribasida kasbiy kommunikativ kompetentlikning mazmuni va mohiyatini aniqlash muammolari bilan muntazam shug‘ullanib kelinmoqda. Ilmiy qiymat va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan usullari chet tili o‘qituvchilari kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muammosini hal etishga, filologik oliy ta‘lim muassasalarida sinovdan o‘tgan kasbiy yo‘naltirilgan materiallar, pedagogik amaliyot, kasbiy va pedagogik mahorat shakllanishi darajasini belgilaydi. Bularning barchasi zamonaviy jamiyat talablari doirasida oliy ta‘lim muassasalarida chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosini tashkil etadi va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko‘rsatadi .

Mamlakatimizda yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni tayyorlashga qaratilgan chet tillarini o‘qitishning kompleks tizimini amalga oshirishga hissa qo‘shadigan o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Barchamizga ayonki, muallimning obro‘-e‘tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e‘tiboridir. Shu bois biz keyingi yillarda o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish, ta‘lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish bo‘yicha ulkan islohotlarni amalga oshirmoqdamiz”.¹ Xususan, ta‘lim-tarbiya jarayoniga xorijiy tajribalarni tatbiq etish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quv jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, nemis tilini o‘rgatish jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan tabrigi, <https://president.uz/uz/lists/view/5569>, 29- sentabr 2022 yil.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pedagogika fanida kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammolari mamlakatimiz olimlari T.K.Sattarov, I.M.Tuxtasinov, N.A.Muslimov, N.J.Isakulova B.G.Qulmatov, U.U.Sattarovlar, shuningdek, rossiyalik va xorijlik olimlar: V.A.Adolf, M.N.Vyatyutnev, E.P.Glumova, Yu.V.Eremin, D.A.Ivanov, T.V.Larina, G.K.Selevko, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoy, V.I Baydenko, R.C.Gardner, W.Hutmacher, D.Hymes, K.Keen, E.Terhart va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.²

² Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дисс. ... д-ра. пед. наук. – Ташкент, 2000. – 32 с.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ходисаси асосида ривожлантириш. пед. фан. бўйича фалсафа док. (DS) дисс. –Тошкент, 2018, с; Муслимов Н.А. Тингловчиларнинг касбий-педагогик компетенцияларини ривожлантириш муаммолари // Халқаро илмий анжуман материаллари. – Т.: 2016. – Б.10–12.; Исакулова Н.Ж. Касб таълими методикаси: ўқув қўлланма. – Т., 2014. – 200 б.; Қулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш: Автореферат. Пед.фан. бўйича фал. док., - Тошкент, 2018. – 45 б.; Musoyeva A.B. CEFRning O‘zbekistonda amalga oshirilishi. – Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. Special Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415; 238-247 б.; Саттаров У.У. Немис тилини иккинчи чет тили сифатида масофавий ўқитишда янги авлод ўқув адабиётларини такомиллаштириш. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферат. – Самарканд., 2022. 55 б.; Адольф В. А. Профессиональная компетентность современного учителя: монография. – Краснояр. гос. ун-т., Красноярск, 1998. – 120 с.; Вятютнев М. Н. Понятие языковой компетенции в лингвистике и методике преподавания иностранных языков // Иностран. языки в школе. – 1975. № 6. – С. 55-64.; Глумова Е.П. Методика обучения организации межкультурного общения на материале регионального компонента (немецкий язык) дис.канд.пед.наук – Н.Новгород, 2006. – 233 с.; Еремин Ю.В. Основы профессиональной коммуникативной подготовки учителя иностранного языка. СПб, – РГПУ им.

Mamlakatimiz olimlaridan J.J.Jalolov, S.Saydaliev, L.T.Axmedova, T.T.Mahkamova, D.O'.Hoshimova, S.A.Ziyaevalarning tillarni o'qitish metodikasi va uning ilmiy-nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari mavjud.³

Chet tili o'qituvchisi kasbiy pedagogik kompetensiyasining tavsifi, strukturasi, mazmuni va darajalari I.A.Kolesnikova, M.V.Tomashevich, K.S.Maxmuryan tomonidan o'rganilgan⁴

Kasbiy axborot kommunikatsion kompetensiya, uning madaniyatlararo aspektlari masalalari M.A.Bovtenko, O.R.Bondarenkovning tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan.⁵

Chet tili o'qituvchisining kasbiy kommunikativ tayyorgarligi asoslari, uni psixologik-pedagogik loyihalashtirish muammolari Yu.V.Eremin, L.N.Zaxarova, V.V.Sokolova, V.M.Sokolov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tahlil qilingan.⁶

Biroq filologik oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat

Герцена, 2001. – 181 с.; Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. – М.: Чистые пруды, 2007. – 32 с.; Ларина Т.В. Межкультурная коммуникация и межкультурная коммуникативная компетенция // Иностранные языки в высшей школе, 2005. - № 1. – С. 47-51.; Селевко Г.К. Компетентности и их квалификации. – М.: Народное образование, 2004. – № 4. – С.138-143.; Сластенин, В.А. Профессиональная компетентность учителя. – М.: Школа-пресс, 2000. – 492 с.; Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты: доклад [Электронный ресурс] /; Центр «Эйдос». – Режим доступа: www.eidos.ru.news.compet.htm; Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России.2004. – № 11. – С. 3–13.; Gardner R.C. Attitudes and motivation in second-language learning. – Newbury House Publishers, 1972. – 313 p.; Hutmacher W. Key competences for Europe: report of the Symposium Berne, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for Cultural Cooperation (CDCC) // Secondary Education for Europe. – Strasburg, 1997. – P. 247.; Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / Ed. by J.B. Pride, J. Holmes. Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269-293.; Keen K. Competence: What is it and how can it be developed? In J. Lowyck, P. de Potter, & J. Elen (Eds.). – Brussels: IBM Education Center, 1992. – 143 p.; Terhart E. Perspektiven der Lehrerbildung in Deutschland. Abschlussbericht der von der Kultusministerkonferenz eingesetzten Kommission / Hrsg. Weinheim und Basel, 2000, 160S.;

³ Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – 431 б.; С.Сайдалиев, Олмон тили ўқитиш методикаси ва таълим технологияси. Ўқув кўлланма. – Наманган, 2018. – 244 б.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Махкамova Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. – Т., 2010. – 208 с.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковой взаимодействия. Дис. док.пед.наук. – Т.: 2007.–209 с.; Зияева С.А Социолингвистическая компетенция как один из компонентов коммуникативной компетенции // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. LXI междунар.науч.-практ.конф. – № 6(61). – Новосибирск, 2016. – С.92-96.

⁴ Колесникова И.А., Тамашевич М.В. Профессионально – педагогическая компетентность учителя иностранного языка: характеристика и структура// Традиции и инновации в методике обучения иностранным языкам. – СПб.: КАРО, 2007. – С.77-84.; Махмурян К.С. Структура, содержание и уровни профессиональной компетентности учителя иностранного языка // Сборник статей МГПУ, МИОО. – М., 2006. – С.72-79.

⁵ Бовтенко М.А. Профессиональная информационно-коммуникационная компетенция преподавателя иностранного языка: Монография. – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2005. – 244 с.; Бондаренков О.Р. Межкультурные аспекты коммуникативной компетенции на ИЯ // Методы и организация обучения ИЯ в языковом вузе // Сб. науч.тр., МГЛУ, Вып.370.- М., 1991.

⁶ Еремин Ю.В. Основы профессиональной коммуникативной подготовки учителя иностранного языка. СПб, – РГПУим. Герцена, 2001. – 181 с.; Захарова Л.Н., Соколова В.В. Соколов В.М. Профессиональная компетентность учителя и психолога – педагогическое проектирование// Учебное пособие. – Н.Новгород: Нижегородский гуманитарный центр, 1995. – 136 с.;

chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Ta’lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari” mavzusidagi rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologik oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o’rganilayotgan muammoning holatini tahlil qilish, uni hal etish bo’yicha istiqbolli yondashuvlarni aniqlash, tadqiqotning kontseptual asoslarini ochib berish;

ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, uning tarkibiy qismlari va mazmun munosabatlarini ishlab chiqish va nazariy asoslash;

filologik oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayoniga chet tili o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini joriy etish;

ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda lisoniy kompetensiyalarni rivojlantirish bo’yicha leksik-grammatik mashqlar kompleksini ishlab chiqish, kasbiy kompetensiyani shakllantirish ko’rsatkichlarini aniqlash va ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini eksperimental sinovdan o’tkazish orqali dalillash.

Tadqiqotning obyekti filologik oliy ta’lim muassasalari ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidan iborat.

Tadqiqotning predmetini filologik oliy ta’lim muassasalari ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish mazmuni, xususiyatlari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so’rovnomalar, matematik-statistik tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o’qitish jarayonida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirishda kasbiy kompetensiyaning ahamiyati, uning tarkibi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, usul va vositalarini aniqlash orqali nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o’rganayotgan talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta’minot kasbiy malaka va ko’nikmalar ifodalangan o’qitish usullarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

ikkinchi chet tili (nemis tili) o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda tilning fonetik-grammatik, leksik-stilistik sathlaridagi kasbiy malaka va ko’nikmalarining lingvo-kommunikativ, sotsiolingvistik hamda strategik kompetensiyalariga integratsiyasini ta’minlash samaradorligi isbotlangan;

o’quv jarayonida kasbiy, leksik-grammatik, tarjima hamda mustaqil ta’lim ko’nikmalarini rivojlantirishda til materiallarini til, nutq va diskursni nazarda tutuvshi ko’p omilli integrativ butunlik sifatida o’qitish zarurati isbotlangan;

ikkinchi chet tili (nemis tili)ni CEFR talablari asosida o'qitish jarayonida o'qituvchining kasbiy axborot kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishda axborot-metodik ta'minotni virtual resurslar orqali takomillashtirish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Filologik oliy ta'lim muassasalari ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi, jumladan: chet tili (nemis tili) ni o'qitishning kasbiy yo'naltirilgan mazmuni bilan ishlashning muayyan strategiyalari, metodlari, shakllari, usullari va pedagogik texnologiyalari, shuningdek, chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalar chet tilini o'qitishning kasbiy yo'naltirilgan mazmuni bilan ishlashning tavsiya etilgan yo'llari, shakllari, usullari va pedagogik texnologiyalarining ta'limiy qiymatini isbotlaydi, kelajakda chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning sifat jihatidan yangi darajasini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan nazariy yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi, berilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning kompetensiyali tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tuzilishining aniqlanishi va mantiqan asoslab berilishi, uning o'qituvchi asosiy kasbiy-pedagogik vazifalarini amalga oshirishga ta'siri, chet tili mutaxassislarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish, bu jarayonda samaradorlikni ta'minlovchi omillar takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda mutaxassis tayyorlashning innovatsion metodlariga asoslangan samarali usullari, mashq va topshiriqlar tizimi, metodik va didaktik ta'minotidan unumli foydalanish ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilari malakasini oshirish kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, shuningdek, ushbu soha bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologik oliy ta'lim muassasalari ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida kasbiy kompetensiya asosida o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda kasbiy kompetensiyaning ahamiyati, uning tarkibi, shakllanish va rivojlanish

bosqichlari, metod va vositalari hamda usullarini aniqlash orqali nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minot kasbiy malaka va ko'nikmalar ifodalangan o'qitish usullarini kiritish orqali takomillashtirishga oid ilmiy natijalaridan I-204-4-5- raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 09-yanvardagi 40/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida fanlardan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida virtual resurslar yaratishda ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni hamda o'qituvchining kasbiy mahorati va talabalar bilimni boyitishga xizmat qilgan;

ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda tilning fonetik-grammatik, leksik-stilistik sathlaridagi kasbiy malaka va ko'nikmalarining lingvo-kommunikativ, sotsiolingvistik hamda strategik kompetensiyalariga integratsiyasini ta'minlash samaradorligiga oid ilmiy xulosalaridan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-BHye-JP "SLASS: Development of the interdisciplinary master program on computational Linguistics at Central Asian universities" (LASS: "Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo'yisha magistratura dasturini ishlab shiqish") nomli innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 09-yanvardagi 40/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu innovatsion loyihada mazkur tadqiqot materiallaridan foydalangan holda o'qituvchi va talabalarning "Ikkinchi chet tili (nemis tili)" fanini o'qitishda kasbiy, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning amaliy yechimiga qaratilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlar, shuningdek, leksik grammatik mashqlar majmuasini tayyorlash, elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda yangi yondashuv sifatida nazariy manba sifatida xizmat qilgan;

o'quv jarayonida kasbiy, leksik-grammatik, tarjima hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda til materiallarini til, nutq va diskursni nazarda tutuvchi ko'p omilli integrativ butunlik sifatida o'qitish zaruratiga oid sinov natijalaridan A-1-057-raqamli "Oliy ta'lim muassasalari talabalarini modulli o'qitishda pedagoglarni kompetentli tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari" mavzusidagi amaliy davlat grantida foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2023-yil 6-fevraldagi 47/01-01-son ma'lumotnomasi). Natijada filologik oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tili (nemis tili) bo'yisha o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish asosida yuzaga kelayotgan xulosalar orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari to'g'risida mavjud bo'lgan nazariyani boyitish, to'ldirish va yangi izlanishlar ushun tekshirish obyektini yaratish imkoniyatiga ega bo'lish, o'qituvchining kasbiy mahorati va talabalarning kasbiy malaka va ko'nikmalarini oshirishga doir materiallar filologik oliy ta'lim muassasalarida pedagogik tajriba-sinov ishlari, so'rovnomalar va testlar o'tkazish imkonini bergan;

ikkinchi chet tili (nemis tili)ni CEFR talablari asosida o'qitish jarayonida o'qituvchining kasbiy axborot kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishda axborot-metodik ta'minotni virtual resurslar orqali takomillashtirishga oid xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining bir qator teleko'rsatuvlarida, xususan, 2023-yil 06-fevral kuni efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" ko'rsatuvida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 8-fevraldagi 01-07/33-son ma'lumotnomasi). Natijada ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy mahorati va talabalarning kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yisha ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar haqida kerakli ma'lumotlar berilgan va keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 tasi impakt faktorli chet el jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ushbu qismda dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilingan ishlar ro'yxati, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Filologik oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tili (nemis tili) bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning strategik mohiyati, nemis tili o'qituvchisining kasbiy pedagogik mahorati, CEFR talabalari asosida nemis tilini o'qitishni nazorat qilish masalalari yoritib berilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tillarni o'qitish sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda, bunday o'zgarishlar natijasida ko'plab davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilmoqda. Amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish va tadbqiq etish chet tili o'qituvchisining ushbu yangiliklarni o'rganish darajasiga har tomonlama bog'liq ravishda yuzaga kelib, mamlakatimiz ta'lim tizimida shakllangan innovatsion pedagogik shart-sharoitlar va til ta'limi funksiyalarini o'rgatish qobiliyati, shuningdek, millatlar va madaniyatlararo munosabatlar yordamida faollashadi. Ana shu jihatdan, mazkur masalalarni yana bir marta ko'rib

chiqish alohida ahamiyat kasb etadi, bu jarayonda chet tillar bo'yicha mataxassis-kadrlar tayyorlashning mazmun-mohiyati, shakl va usullarini shakllantirishni taqazo etadi.

Zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash sohasida pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri o'qituvchining kompetentligi masalasi bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda ijtimoiy tajriba mantazam ravishda o'zgarib, o'qitish, o'rganish tizimi qayta qurilmoqda, pedagogika sohasida turli yo'nalishlar paydo bo'lmoqda hamda ularning ahamiyati yildan-yilga ortib, yetuk mutaxassis-kadrga bo'lgan ehtiyoji darajasi ortib bormoqda.

Mazkur masalaning mohiyatini anglashga ilmiy-nazariy qarashlarning tadqiqi va tahlili "kasbiy pedagogik kompetensiya"ga tasnif berish imkonini beradi. O'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligini o'rganilgan va egallangan bilim, ko'nikma, malakalar va pedagogik ob'ektlar bilan ishlash usullari tizimi tashkil etadi, professionallikning maxsus turi sifatida alohida ko'rsatiladigan mazkur kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida ma'lum darajalarni aniqlab olish zarurati tug'iladi, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda asosiy mezonini bilish talab etiladi, buning uchun ushbu tushunchaning yetakchi va tarkibiy qismlarining shakllanish darajalarini aniqlash lozim. Demak, shu asosda ma'lum bo'ladiki, uning yuqori, o'rta va past darajalari mavjud. Kasbiy kompetensiya tushunchasi: nazariy, amaliy, tadqiqot va kasbiy shakllanish, ma'lum bosqichlar va o'qituvchilarning pedagogik mahoratidan tashkil topadi, ularni quyidagicha qayd qilish mumkin: dastlabki bosqich, asosiy bosqich, yakuniy bosqich, shuningdek, axborot-motivatsion bosqich, faoliyat bosqichi, qidiruv-prognostik bosqichi, refleksiv-loyihalash bosqichi.

Hozirgi zamon chet tili o'qituvchisi maxsus kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Ushbu kompetensiyalarga quyidagilar kiradi: kommunikativ, sotsiolingvistik, ta'limiy-kognitiv, lingvistik-madaniy, ijtimoiy va strategik, lingvistik-metodologik kabi kasbiy kompetensiyalar.

O'qituvchining lingvistik kompetensiyasi uning til tizimini bilish va chet tilida muloqotga kirishish qoidalarini tushunishini anglatadi. Sotsiolingvistik kompetentlikka ona tili va chet tili madaniyati kiradi. Mazkur kompetensiya ma'lum lingvistik shakllarni tanlashga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bu jarayonda o'qituvchining lingvistik va madaniy bilimlari ko'zda tutiladi. Uning asosiy xususiyatlari tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va ularning nutqiy muloqotda qo'llay olishi hisoblanadi.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi til bilimlarini idrok qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Shu asosda, chet tilidagi matnlarni yaratish o'qituvchiga kommunikativ vazifa qilib qo'yiladi. Ushbu kommunikativ kompetensiyada talabalarning muloqot jarayoni ishtirokchilari sifatida harakat qiladigan kompetentligi, matnlarni yaratish tushuniladi.

O'qituvchining o'qish orqali ma'lum bilimlarni egallash kompetentligi o'qish texnikasini egallash va chet tillarni o'rganish strategiyasi, talabalar uchun yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash va uni rivojlantirishni o'zida aks ettiradi.

O'qituvchining lingvistik kompetentligida talabalarning aqliy bilimlar va nutqiy faoliyatini tashkil etish, ularning nutqni rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyati, nutqni nazorat qilish va boshqalar muhim hisoblanadi, ularga alohida e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya "pedagogik mahorat" tushunchasini har xil talqin qiladi. Xususan, "Pedagogik ensiklopediya"da shunday ta'rif berilgan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis"⁷. "Pedagogik mahorat"ga berilgan ushbu ta'rifning mazmunini chuqur anglagan holda, o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mohiyatini quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1) kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish, kasbiy jihatdan madaniyatli bo'lish ;

2) o'zining mutaxassisligi bo'yicha kasbiy bilimlarni chuqur o'zlashtirganlik;

3) pedagogika va psixologiyaga oid tushunchalar va malaka hamda ko'nikmalarni o'zining kasbiy pedagogik faoliyatida qollay olish;

4) ta'lim-tarbiya metodikasida mavjud usullarni puxta bilish.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisining kasbiy pedagogik mahorati tushunchasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan, ular quyidagilardan iborat:

1) pedagogika fanida insonparvarlik yo'nalishi;

2) kasbga oid mavjud bilim, kasbiy malaka va ko'nikmalarni boshqa fanlar bilan bog'liqlikda puxta egallash;

3) kasbiy pedagogik qobiliyatni namoyon qilish;

4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Dunyoda bor bo'lgan barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'ziga xos va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Demak, o'qituvchi yosh avlod kamol topishida uning me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Hozirgi vaqtda o'qituvchi yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, ularni mehnat faoliyatini shakllantirib, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Pedagoglarga belgilanayotgan ushbu mas'uliyat o'qituvchidan har bir kasbiy faoliyatning mohir ustasi bo'lishni, barcha talabalarga ma'naviy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini doimiy rivojlantirish yo'llarini va usullarini mukammal biladigan kasb egasi bo'lishni taqazo qiladi. Mazkur talablarni bajarish uchun o'qituvchining

⁷ Сафарова Р.Ф. Педагогика Энциклопедия (2-жилд). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015. – 377 б.

kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini doimo oshirib borish, ularga g'amxo'rlik qilish, unga muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, shuningdek, o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

O'qituvchining pedagogik mahorati o'qituvchi-tarbiyachiga kasbiy ijodkorlik, pedagogik mahorat, oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, o'qituvchining nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish qobiliyati, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati zahirida muntazam takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Keyingi yillarda jahonning ko'plab mamlakatlarida chet tillarni o'qitish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib borayotganligi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadigan hujjatlardan biri tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumot tizimi: o'rganish, o'qitish, baholash (CEFR-Common European Framework of References) Yevropa Ittifoqida qo'llaniladigan xorijiy tillarni bilish darajalari tizimidir. Mazkur hujjat Evropa Kengashi tomonidan 1989-1996-yillar oralig'ida "Yevropa fuqaroligi uchun til o'rganish" loyihasining asosiy qismi sifatida ishlab chiqilgan. CEFR tizimining asosiy maqsadi barcha Yevropa tillari uchun qo'llaniladigan baholash va o'qitish usulini taqdim etishdir. 2001-yil noyabr oyida Yevropa Kengashi rezolyutsiyasi tilni bilish darajasini baholashning milliy tizimlarini yaratish uchun CEFRdan foydalanishni tavsiya qildi. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, Evropa Kengashi va dunyoning ko'zga ko'ringan tashkilotlari tomonidan qo'mitalar, uyushmalar, ilmiy tekshirish institutlari tuzilib, CEFR tavsiyalari asosida chet tili ta'limining barcha bosqichlarida tilni o'rganish va o'zlashtirish sifatini yanada oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda chet tillarini, shu jumladan, nemis tilini chuqur o'rganish va o'qitishga juda katta e'tibor qaratilib, hozirgi kunda respublikamiz miqyosida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunday yangilanishlar va o'zgarishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarorida o'zining yorqin ifodasini topgan. Mazkur Qaror chet tillarini o'zlashtirishning tubdan o'zgartirilgan asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qarorda chet tillarni o'rganishning xalqaro standartlarga muvofiq tarzda olib borilishi, baholashning milliy tizimini yaratish va chet tillari o'qitish tizimini yanada takomillashtirish vazifalari ko'rsatib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1875-sonli Qarori 2013-yildan boshlab mamlakatda CEFRni amalga oshirishga zamin yaratdi, natijada CEFR dasturi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, mamlakatda chet tillarni o‘qitish, o‘rganish va baholashga xizmat qiladigan asosiy hujjatga aylandi. Bunday dasturning qabul qilinishi o‘z navbatida, Vazirlar Mahkamasi tomonidan Davlat ta‘lim standartlarining (2013-yil) joriy etilishini ta‘minladi. Mazkur hujjatga asosan ularda har bir ta‘lim bosqichining oxirida talabalar uchun ma‘lum darajalarni egallashga nizom asosida tavsiyalar berilgan, bu esa CEFRni A1 dan C1 darajagacha ta‘lim bosqichlariga qabul qilish kerakligini talab qiladi. Ushbu hujjatga ko‘ra C1 darajasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan til bilishning eng yuqori darajasi deb belgilab qo‘yilgan. CEFR asosida qabul qilingan mahalliy darajalar nafaqat chet tilini o‘rganishda, balki ta‘limning barcha fanlarida ham joriy qilinishi ko‘zda tutildi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi 187-sonli Qaroriga muvofiq, Davlat ta‘lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritildi va O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimida Davlat ta‘lim standartlariga asoslangan holda chet tilini o‘rganish ma‘lum bosqichlarda amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘limda nemis tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish amaliyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida kasbiy kompetensiya pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida, filologik oliy ta‘lim muassasalarida nemis tili o‘qitishning hozirgi holati tahlili, o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mashqlardan foydalanish kabi masalalar yoritib berilgan.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab tuzilmani tashkil etadi. D.A.Ivanovning fikriga ko‘ra, “kasbiy kompetensiyalar o‘qituvchining umumiy va maxsus kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi, xususiy kompetensiyalar umumiydan kelib chiqib, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ko‘proq o‘ziga xos kompetensiyalar deyiladi: ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar, tashkiliy va boshqaruv kompetensiyalar”⁸.

Hozirgi zamon nemis tilshunos olimlarining tadqiqot ishlari natijalarida asoslangan holda, nemischa “Kompetenz” so‘zining ma‘nosini ochib berishda “kompetentlik va kompetensiya” kasbiy yetuklik tushunchalarini ifodalaydi. Ushbu olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, bu tushunchalar bir-biriga sinonim so‘zlar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tushunchalarni rus tiliga tarjima qilinsa, bu atamaning semantik ma‘nosi, “kompetensiya” (lotin tilidan *competere* — yondashuv, o‘yin) so‘zi orqali anglashiladi va mutaxassisning kasbiy qobiliyatini namoyon qilishdagi shaxsiy sifatlarini ko‘rsatib beradi.

Nemis olimlarining ilmiy izlanishlarini tahlil qilish asosida, nemis tili o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya muhim ekanligini tushunish mumkin. Ularning aksariyati uchun, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi ko‘p o‘lchovli bo‘lib, uni ham rejalashtirish, ham natijaviyligini ta‘minlash talab qilinadi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalar quyidagi to‘rtlikning o‘zaro ta‘siri

⁸ Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. – М.: Чистые пруды, 2007. – 32 с.

orqali amalga oshirilishi mumkin, bu tarkibiy qismlar quyidagilar: ijtimoiy tahlil, pedagogik vaziyatlar diagnostikasi, o'zini-aks ettirish va kasbiy harakatlar.

Pedagogik vazifa kabi muhim tarkibiy qismlar, kasbiy etika va reflektiv ko'nikmalar, yuqoridagi ta'riflar shuni ko'rsatadiki, "kompetentlik" tushunchasiga asoslangan holda pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanishicha, o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini ko'rib chiqish mumkin:

- dunyo haqidagi mavjud bilimlar asosida vazifalarni bajara olish, shuningdek, o'quv fani va tegishli mavzuga oid maxsus bilimlar bo'yicha kasbiy kompetentliklar haqida;

- maxsus kasb etikasi asosida barkamol bo'lishi mumkin bo'lgan talabalar manfaatlarini ko'zlab muayyan pedagogik vaziyatni hal qilish;

- yuqoridagi ikki shartning bajarilishi lozim va pedagogik harakatlarda har bir shaxs uchun zarur bo'lgan javobgar bo'lish mas'uliyati kerak.

Chet tili o'qituvchisining uslubiy va metodik madaniyati orasida dizayn, tashkiliy, bilim va tadqiqot kabi evristik yetukliklari ajralib turadi. Shu bilan birga, chet tili o'qituvchisi shaxsining psixologik xususiyatlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan, ya'ni ijodkorlik, yangi narsalarni yaratish va ixtiro qilish qobiliyati, talabchanlik hatti-harakatlari, ya'ni talabaning holatiga kira olish qobiliyati, tanqidiy fikrlash, talab qilish qobiliyati alohida ajralib turadi. Kasbiy-pedagogik faoliyat tuzilmasini belgilashda xorijiy tillar o'qituvchilarining talabalar bilan o'zaro pedagogik munosabatlari jarayoni juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda yangi, amaliyotni o'zgartirishi kerak bo'lgan jihatlarini ifodalaydigan kompetensiyalar o'qituvchining kasbiy mahorati mohiyatidan kelib chiqadi. Buning sababi shundaki, ta'lim tizimi, xususan, til ta'limi ham ana shunday muammolarni hal etadi, yangi pedagogik paradigma tanlash kabi qiyin vazifalarni bajarish talab qilinadi.

Hozirgi zamon chet tili o'qituvchisining o'rni va maqomini belgilash chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetentligi darajasiga, kasbiy va shaxsiy fazilatlariga yangi talablarni ilgari suradi. Ushbu talablar quyidagilardan iborat: mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyati; pedagogik innovatsiyalarga ochiqlik; o'z bilim va ko'nikmalarini ta'limning o'zgaruvchanligi sharoitlariga moslashtirish qobiliyati; yangi muammolarni hal qilish va kasbiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati; mustaqil va ijtimoiy faoliyat; kasbiy tafakkur, izlanish va ijodiy faoliyat qobiliyati; kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati.

Jahon ta'lim amaliyotida "kompetentlik" tushunchasi o'zida ta'limning intellektual va malakaviy tarkibini birlashtirish, ta'lim mazmunini interpretatsiyalash g'oyasini qamrab olish bilan birga madaniyat va faoliyat sohalaridagi keng qamrovli (axborot, huquqiy va x.k.) qator ko'nikma va malakalarni integratsiyalash tabiatiga ega. Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va dalillarni tahlil etish kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatadi, xususan:

- oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining yetuk mutaxassis ma'lumoti darajasi bilan Davlat ta'lim standartining modernizatsiyalashgan mazmuni va hajmiga

qo'yilayotgan me'yoriy talablar hamda uning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasi o'rtasida;

- oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida;

- o'qituvchi shaxsi va uning kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan o'qituvchini bo'lajak o'qituvchi sifatida tayyorlash jarayonini rivojlantirish mexanizmi hamda qonuniyatlari o'rtasida;

- pedagogik turkum fanlarning o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasida;

- ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanib borayotgan jamiyatning mahoratli pedagog shaxsiga nisbatan ortib boruvchi talablari bilan o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish asosiy qismining o'z-o'zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritishga tayyor emasliklari o'rtasidagi ziddiyatlar kabilarni ko'rsatish mumkin.

Chet tillarni o'qitishda yuroqida sanab o'tilgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentliklarini shakllantirishdir. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Har qanday chet tilini o'rgatish qiyin, ammo foydali tajriba bo'lishi mumkin va nemis tili bundan mustasno emas. Tez-tez duch kelinadigan asosiy muammolardan biri bu - o'qitishga yondashuvni tanlashdir. Bu ham o'qituvchining, ham talabaning shaxsiy kuchli tomonlari va afzalliklariga bog'liq bo'ladi. Nemis tilini qanday o'rgatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng, talabalarga til asoslarini o'rganishga yordam berish ustida ishlash zarur. Talabalarning nemis tili va madaniyati bilan shaxsan bog'lanishiga yordam berish orqali ularning tajribasini yanada orttirish mumkin. Nemis tilini o'rgatishning eng yaxshi yondashuvi ko'p jihatdan kimga o'rgatayotganingizga bog'liq. Masalan, kattalarni o'qitish bolalarni o'qitishdan farq qiladi. Tizimli yondashuv uchun an'anaviy o'qitish usullarini sinab ko'rish mumkin. An'anaga ko'ra, chet tillari grammatika va lug'at qoidalariga urg'u berilgan holda, ko'p takrorlash va yodlash bilan o'qitiladi. Biroq, immersiv yoki vazifaga asoslangan yondashuvlar tobora ommalashib bormoqda. Ikkala yondashuv ham foydalidir va qaysi yondashuv yaxshiroq ishlashi ko'p jihatdan talabalarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga bog'liq bo'ladi. Grammatika, sintaksis va lug'atga e'tibor qaratadigan an'anaviy usullar nemis tilini o'qitish malakasini oshirishga e'tibor qaratmoqchi bo'lgan talabalar uchun eng yaxshisi bo'lishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilar va talabalar uchun ikkala usulni birlashtirish foydali bo'lishi mumkin.

Jamiyatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida ta'lim muassasalariga malakali kadrlarni tayyorlash ularning kompetentligini oshirishni zarurat darajasiga ko'tardi. Bu esa hozirgi vaqtda davr talabiga javob beradigan mutaxassislarining nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda, balki buyuk insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi o'qituvchilar malakasini va kompetentligini oshirishda yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor isbotlamoqda. Pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha psixologik-pedagogik mahorat darsi o'tkazish strategiyasi bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasi, intellektual salohiyatini oshirish, mavjud ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, filologik oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi ham respublika hukumatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorlari asosida chet tillarni o'qitish va o'rganish sohasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining yuqorida aytib o'tilgan Qarori (PQ-1875-son) mamlakatimizning barcha ta'lim muassasalarida CEFRning kirib kelishiga asos bo'lib xizmat qildi. Respublikamizning filologik oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi CEFR talablari asosida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining chet tillari bo'yicha yetakchi ta'lim muassasasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hisoblanadi. O'zDJTU chet tillarni o'qitish va o'rganish bo'yicha respublikaning tayanch oliy o'quv yurti bo'lib, chet tillarni o'qitish masalalarining barchasi shu yerda muvofiqlashtiriladi. Shunga ko'ra, barcha filologik oliy ta'lim muassasalari (fakultetlari)da Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar, fan dasturlari, o'quv dasturlari O'zDJTU tomonidan uzoq yillar davomida ta'minlab kelinmoqda.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarni o'rganish tilni o'qitish maqsadlarining turli davrlarda va metodlarda o'zgarib turganini kuzatish imkonini beradi.

Jumladan, nemis tili ikkinchi chet til sifatida o'rgatiladigan mamlakatlarda davlat tuzumi, qonuniyatlari bir-biridan farq qilganligi sababli ham ushbu tilni o'qitish jarayoniga turlicha munosabat bildiriladi. Aytaylik, yevropa va sharq mamlakatlaridagi ta'lim tizimi bir-biridan tubdan farq qilishi bilan birga aloqadagi tillararo munosabatlarda ham o'ziga xos qonuniyatlari mavjud, shu bilan birga til o'rganuvchilarning mentaliteti ham har bir millatga oid xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Nemis tilini ikkinchi chet til sifatida o'qitish maqsadlari turli metod vakillari tomonidan turlicha ifodalangan. Masalan, grammatika-tarjima metodi talablariga ko'ra, talaba o'rgangan so'zlar va grammatik qoidalar yordamida matnlarni tushuna oladigan va ularni ona tiliga tarjima qila oladigan bo'lishi lozim. Bu yerda o'qituvchining tarjima sohasidagi mahorati alohida ahamiyat kasb etadi, o'qituvchi o'z talabalariga tarjima usullarini mashqlar asosida o'rgatishi va mustahkamlashi talab etiladi. Demak, o'qituvchi bunday vaziyatda tarjimon vazifasini ham bajaradi. Bu jarayonda "tarjimondan har qanday holatda ham professionalizm, ya'ni tarjima faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim va mahoratni to'liq egallash talab qilinadi. Biroq kasbga oid sifatlar har doim bir xilda faollasha olmaydi, chunki ularning namoyon bo'lishi turli omillarga bog'liq. Bunday omillar qatoriga tarjima turi, matnning qaysi sohaga oidligi, janr xususiyatlari kabilar kiradi. Shunga nisbatan, tarjima kompetensiyasi hodisasini turli nuqtai nazardan tavsiflash, struktur qismlarga ajratish an'anasi mavjud"⁹. Agar grammatik qoidalar talaba tomonidan yod olinsa, ular ona tilidan nemis tiliga tarjima qilish jarayonida qo'llay olinsa hamda ma'lum hajmdagi so'zlar yod olingan bo'lsa maqsadga erishilgan deb hisoblash mumkin. Ma'lumki, malakalarni rivojlantirish til ta'limi markazida turadi. Mashqlar yordamida nutqiy avtomatizmga erishish asosiy maqsad etib belgilanadi. Tabiiyki, malakalar ketma-ketligi til o'rganishga asoslanib quyidagi tartibda belgilanadi, ya'ni tinglab tushunish va gapirish o'qish va yozishdan avval o'rganilishi lozim. Talabga ko'ra, talaba belgilangan mavzular, nutq vaziyati, nutqiy harakat va grammatika asosida tinglab tushunishi, gapirishi, o'qishi va yoza olishi lozim bo'ladi.

Chet tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetentligini shakllantirish uchun mashqlar va topshiriqlar tizimi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Nemis tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun mashqlar majmuasini tuzish va undan samarali foydalanish talab qilinadi.

O'qitish metodikasida xorijiy tillar bo'yicha quyidagi mashq turlari mavjud, biz tomondan o'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi kasbiy shakllantirishga qaratilgan:

- til va nutq mashqlari;
- nutq mashqlariga tayyorgarlik;
- kommunikativ mashqlar;
- til, nutqqa tayyorgarlik va nutq mashqlari.

Bunday mashqlar majmualarini shakllantirish nemis tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetentligi qiyinchiliklarini tahlil qilish va bartaraf qilish tamoyillarini belgilash natijalariga asoslanadi.

Mashqlar majmuasi ma'lum ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi va nemis tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan:

⁹ Safarov Sh.S. Tarjima kompetensiyasining tarkibiy qismlari. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal, journal.fledu.uz, № 3/2019. – B. 111-129.

- kasbiy-pedagogik faoliyat sharoitida mashqlar kasbiy o'zlashtirishga qaratilgan - yo'naltirilgan materialdan, ular bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda foydalaniladi.

- har bir mashqda aniq bir vazifa belgilanadi. Kasbiy va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish nemis tili o'qituvchisining qo'yilgan vazifalarni hal etish tartibini belgilaydi, ularning asosiy maqsadi samarali natijaga erishishdan iborat.

- mashqda til materiali ma'lum bir nutq harakatini belgilaydi va uni amalga oshirish shartlari beriladi.

- tinglangan yoki o'qilgan matn bildirilgan fikr yoki qilingan xulosa shaklidagi mashqlar nutq mahsulini shakllantirishga qaratiladi. Bir qator tayyorgarlik mashqlari ustida dastlabki ishlash natijasi nutq mahsulidir.

- mashqlarda kasbiy tarkibiy mazmun va nemis tili o'qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi hisobga olinadi.

Nemis tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetentligi yuqorida qayd etilganidek, murakkab tuzilishga ega, jumladan, nutq, diskursiv, lingvistik, ijtimoiy-madaniy va kompensator kompetensiyalardan tashkil topgan.

Nemis tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) kasbiy yo'naltirilgan lisoniy mashqlar; 2) nutqqa kasbiy yo'naltirilgan mashqlar.

Bu turdagi mashqlar an'anaviy tuzilishga ega, faqat ular kasbiy yo'naltirilganligi bilan farq qiladi. Quyidagi xarakterdagi vazifalarni bajarish uchun kasbiy yo'naltirilgan til mashqlari tavsiya qilinadi:

- o'qituvchilarining kasbiy darajasi doirasidagi mavzu va tilga mos bir necha matnlarni tanlashga yo'naltirilgan mashqlar;

- mavzuga oid so'zlar bilan maqollardan foydalanishga e'tibor berish va leksik birliklarni yozib kelish;

- aytib o'tilgan muammolarni bayon qilish uchun leksik vositalarni tanlash, matnlar tuzish;

- tanlangan matnlarga savollarni shakllantirish;

- leksik birliklar, vaziyatlarni hosil qilish asosida talabalar bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- tavsiya etilgan mavzu bo'yicha yangi leksik birliklardan foydalanish asosida talabalar monolog tuza olishlarini shakllantirish.

Birinchi bosqichda o'rganilgan shartli nutq, kasbiy yo'naltirilgan mashqlar bilimlarni qo'llashga imkon beradi. Bunday mashqlar yordamida quyidagi nutq malakalarini shakllantirish lozim: 1) situativlikka ega; 2) so'zlovchi uchun kommunikativ vazifaga ega; 3) mazmuni va maqsadiga ko'ra aytilishi, mazmun va shakl birligini ta'minlash orqali talaba ongining ustuvor yo'nalishi; 4) mashqlarni bajarish davomida muloqot jarayonini taqlid qilish, uning elementlarini o'rganish.

Nemis tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetentligini shakllantirishda shartli nutq vazifalarining quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: mavzu bo'yicha reja tuzish, vaziyatni muhokama qilish va talabalarni monologga undash, matnni qayta ko'rib chiqish, uni o'qituvchining til darajasiga moslashtirish, matnni qisqartirish, uning mazmunini 2-3ta iboralarda yetkazib

berish; sevimli yozuvchi haqida hikoya tuzish, texnologiya olamining so‘nggi yutuqlari haqida xabar tayyorlash mashqlari muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy yo‘naltirilgan nutq mashqlari o‘qituvchining tayyorlanmagan fikrlarini ifodalaydi. Ular muloqot holatlarining yangiligini, nutq-tafakkurning murakkablashuvi vazifalarini bajaradilar. Bu bosqichda har qanday mahoratning psixofiziologik asosi sifatida kuchli, mobil, stereotip ko‘rinishda shakllanadi va takomillashadi.

Metodist olim S.Saydaliyev nemis tili bo‘yicha quyidagi mashq turlarini taklif qiladi: Grammatika-tarjima metodining mashq turlarini ko‘rib chiqamiz.

Ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri grammatikani o‘rgatishdan iborat:

- ma‘lum qoidaga muvofiq gaplarni tuzish (qoidani qo‘llash);
- shakllarni to‘ldirish (matndagi bo‘shliqni to‘ldirish);
- gaplarni grammatik kategoriyalar asosida o‘zgartirish (aniq nisbatdagi gapni majhul nisbatga aylantirish);
- tarjima (ona tilidan nemis tiliga, nemis tilidan ona tiliga);

Xato tuzatish mashqlari:

- bunday mashqlar dastlab o‘qituvchi nazorati va ko‘magida auditoriyada bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

- bunday mashqlarni bajarish orqali talabalar yozma ravishda bajariladigan ishlardagi uchrab turadigan qiyinchilik va xatolarni grammatika yordamida bartaraf qilishni o‘rganadilar.

Talabalarning yozma ishlaridagi takror-takror uchrab turadigan tipik xatolardan beshta gap doskaga yoziladi. Talabalar guruhlariga bo‘linadi. Ular grammatika darsligiga asoslangan holda xatolarni tuzatadilar. O‘qituvchi yordamni qaysi sahifalardan olish haqida aytib beradi.

Talabalarga quyidagi tavsiya beriladi: gaplarni o‘qing, xatoni aniqlang. Xatoni kitobdan foydalangan holda tuzating. Qoidani toping. Guruhlarning ish natijalari qiyoslanadi. Bunday mashqlar turli o‘yinlar tarzida ham o‘tkazilishi mumkin.¹⁰

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari, uni o‘tkazish, pedagogik tajriba-sinov ishlar natijalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda statistik tahlillari yoritib berilgan.

Tadqiqot bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ularning maxsus metodika asosida olib borilganligi, ikkinchi chet tili (nemis tili) o‘qituvchisining va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini hamda kasbiy malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik ta‘minot yordamida tashkil etilganligi, pedagogik shart-sharoitlarning maqbulligi va nemis tili mashg‘ulotlarida talabalar muloqot yuritish kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilganligi, tajriba-sinov ishlari natijasining qiyosiy baholanganligi bilan aniqlandi.

¹⁰ Сайдалиев С. Чет тили ўқитиш методикасидан очерклар – Наманган, 2002. – 88 б.

Biz tomondan o'rganilgan ko'plab ilmiy-metodik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari oliy ta'lim muassasalarida nemis tili ikkinchi chet tili sifatidagi til mashg'ulotlarida olib borilgan uzoq yillik pedagogik tajribalar asosida eksperimental tadqiqotning ilmiy farazi sifatida quyidagi fikrlar ilgari surildi.

Agar nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari:

- hozirgi kundagi o'qituvchilarga kasbiy kompetensiyalar bo'yicha qo'yilayotgan talablarga to'liq mos kelsa;

Talabalar tafakkurida til malaka va ko'nikmalarining mazmuni singdirilsa;

- o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasi va talabalar kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda xorijiy davlatlarning tajribalari aks etsa;

- nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilayotgan til mashg'ulotlarida o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari, talabalarning nemis tili bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda kompetensiyalar bo'yicha, grammatika kitobi, o'qituvchi kitobi va mashqlar to'plamidan, mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlardan foydalangan holda takomillashadi hamda nemis tilidan talabalar va o'qituvchilarning barcha til ko'nikmalari rivojlanadi.

Amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – OTMlarning ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ingliz tili fakultetlarida ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ikkinchi chet tili (nemis tili)dan malaka va ko'nikmalarni oshirishga xizmat qiladigan usullarni shakllantirish va rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali metodikasini ishlab chiqish va amalda sinovdan o'tkazishdan iborat bo'ldi.

Pedagogik tajriba-sinov ishida eksperimental tanlama miqdorini 316 nafar ingliz tili yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar tashkil etdi. Ular tajriba va nazorat guruhlarida qatnashishdi; tajriba-sinov bazasi sifatida Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti va Qarshi davlat universiteti xorijiy tillar fakultetlari (ingliz tili yo'nalishi) tanlandi. Tajriba-sinov ishlariga jami 373 nafar respondent jalb qilingan bo'lib, shulardan 316 nafari ingliz tili yo'nalishi talabalari, 57 nafarini ushbu talabalarga ta'lim beruvchi OTMlarning ikkinchi chet tili (nemis tili) fani professor-o'qituvchilari tashkil etdi. (jadval 3.1)

3.1-jadval

Oliy ta'lim muassasalarining tajriba-sinov ishida ishtirok etgan professor-o'qituvchi va talabalarlar soni


T/r	Oliy ta'lim muassasalari	Ishtirok etganlar soni	
		Professor-o'qituvchilar	Talabalar
1.	Samarqand davlat chet tillar instituti	25	157
2.	Buxoro davlat universiteti	15	80
3.	Qarshi davlat universiteti	17	79
	Jami:	57	316

Tadqiqot ishida olingan natijalarga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilari keltirilgan kompetensiyalarni o'z faoliyatlari uchun muhim deb bilishadi va bunga 90% dan ko'proq chet tili o'qituvchilari ijobiy qaraydi (3.2- jadvalga qarang).

3.2-jadval

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kompetensiyalarni bilish darajasi

Professor-o'qituvchilarning kompetensiyalarni bilish darajasi									
№		O'qituvchilar soni 57 nafar							
		A'lo		Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		1	%	2	%	3	%	4	%
1.	Pedagogik kompetensiya	26	45	29	51	2	4	0	0
2.	Kommunikativ va kasbiy kompetensiya	28	49	27	47	2	4	0	0
3.	Pragmatik va sotsiolingvistik kompetensiya	21	37	30	52	6	11	0	0
4.	Lingvistik kompetensiya	27	47	25	44	5	9	0	0
	Bilish darajasi, o'rtacha		44.5		48.5		7		0



3.1-rasm. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari diagrammasi (foizda)

Tajriba-sinovda ishtirok etgan talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, har ikki guruh talabalarining til bilish malaka va ko‘nikmalari bilan bog‘liq fikrlari, kasbiy va kommunikativ kompetensiyaning roli, oliy ta‘lim muassasalaridagi chet tilini o‘qitish bilan bog‘liq shart-sharoitlar, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhimligi kabilar o‘rganildi. Unga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalarida 2-bosqich talabalar jami tajriba guruhlarida 78 nafar, nazorat guruhlarida 68 nafar, 3-bosqich talabalar esa tajriba guruhlarida 82 nafar va nazorat guruhlarida 72 nafar respondentni tashkil etdi. Dastlabki so‘rovnoma jarayonida eksperimental tanlanma miqdorini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (3.3-jadvalga qarang):

3.3-jadval

Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta‘lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar (raqamlarda)

OTM nomi	O‘zlashtirish	Tajriba guruhlar				Nazorat guruhlar			
		Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%	Tajriba boshida talabalar soni	%	Tajriba oxirida talabalar soni	%
OTMlar (SamDC HTI, BuxDU, QarDU) bo‘yicha	Yuqori	53	33	88	55	29	19	36	23
	O‘rta	45	28	49	31	32	20	42	27
	Quyi	62	39	23	14	95	61	78	50

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan talabalarning tajriba sinov guruhi va nazorat guruhi natijalari bo‘yicha o‘zlashtirishining o‘rtacha ko‘rsatkichini quyidagi formulalar orqali aniqlashga harakat qilamiz:

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^N n_i x_i, \quad \bar{y} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^M m_i y_i$$

Bu yerda N = 160, M=156 uchun hisoblaymiz:

$$\bar{x} = \frac{1}{160} \cdot (88 \cdot 5 + 49 \cdot 4 + 23 \cdot 3) = \frac{440 + 196 + 69}{160} \approx 4.4$$

$$\bar{y} = \frac{1}{156} \cdot (36 \cdot 5 + 42 \cdot 4 + 78 \cdot 3) = \frac{180 + 168 + 234}{156} \approx 3.7$$

Demak, talabalar tomonidan o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “5 baholi” baholash tizimi bo‘yicha (tajriba sinov guruhi amaliy topshiriqlar, testlar bo‘yicha)

foizlarda $X_0 = \frac{4.4}{5} \cdot 100\% = 88\%$ va (nazorat guruhi amaliy topshiriqlar, testlar bo'yicha) $Y_0 = \frac{3.7}{5} \cdot 100\% = 74\%$ ni tashkil etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tajriba-sinov guruhi natijalarining o'rtacha ko'rsatkichi yuqoriroq ekanligini ko'rsatmoqda. Tajriba-sinov guruhi va nazorat guruhi natijalari bo'yicha hosil qilingan ma'lumotlar uchun $1 = \bar{x} - \bar{y} = 14\%$ transregressiya tenglamasi kelib chiqadi. Bundan shuni tushunish kerakki, tajriba-sinov guruhi va nazorat guruhi amaliy topshiriqlar, test natijalari farqi 14% ni tashkil etadi.

Taklif etilgan metodika filologik oliy ta'lim muassasalarida nemis tilidagi kommunikativ muloqotni rivojlantirish integratsiyasini ta'minlash zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari 2020-2022-yillar davomida Tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universitetida o'qituvchilar va talabalar kasbiy kompetensiyasi hamda malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish amaliyotiga joriy etildi va 14% samaradorlikka erishildi.

XULOSA

1. Kasbiy-pedagogik kompetentlik har biri kommunikativ komponentga ega bo'lgan umumiy madaniy, umumiy pedagogik va madaniyatlararo kompetensiyalarning o'zaro aloqadorligi bilan shakllanadi. Ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetentligi kasbiy-pedagogik jihatdan tarkib topgan barcha kompetensiyalarni amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilganlarning hammasi talabalarni real madaniyatlararo muloqotga tayyorlash uchun didaktik tadbirlar tuzilishini aniqlaydi. Demak, kompetentlik tushunchasi chet tili o'qituvchisining fundamental kasbiy vazifalarini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishni ko'zda tutadi.

2. Ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy kompetentligi kasbiy-pedagogik faoliyat funksiyalarida faollashadi, bu funksiyalar ikki guruhga bo'linadi: maqsad qo'yish funksiyalari va operativ hamda tarkibiy funksiyalar. Til, nutq, diskursni egallashni nazarda tutuvchi ko'p omilli integrativ butunlik sifatida kasbiy kompetentlikni maqsadga muvofiq shakllantirish o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

3. Filologik oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilari uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda chet tiliga o'rgatish jarayoni kasbiy kompetensiya asosida mutaxassislikka yo'naltirilgan bo'lishi talab qilinadi. Chet tili ta'limida kasbiy kompetentlik dominantlik vazifasini bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu kompetentlik ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisiga tegishli bo'lgan barcha kompetensiyalarning tarkibiy qismlarini amalga oshirishning asosi sifatida xizmat qiladi.

4. Ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi har doim muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon

o'qituvchilarning samarali pedagogik faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Shu jihatdan qaralganda, kasbiy kompetensiya pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida shakllanadi.

5. Ko'p yillik hayotiy tajriba va kasbiy kompetensiyalarning shakllinishi asosida ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Bunda professional bilim, pedagogik mahorat va o'qituvchi etikasi muhim rol o'ynaydi.

6. Keyingi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o'qitish va o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi chet tillarni, xususan, nemis tilini o'qitilishini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida qo'yildi. Shunga ko'ra, respublikamiz filologik oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi CEFR talablari asosida amalga oshirilmoqda va bu sohada samarali natijalarga erishilgan.

7. Filologik oliy ta'lim muassasalari talabalarning chet tilidagi kommunikativ muloqoti, ularning o'zaro muloqotini rivojlantirish qobiliyatining zarurligi, bunda lingvistik, tematik, ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va kognitiv kompetensiyalar ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisi kasbiy kompetentligining asosiy ko'rsatkichlarini tashkil etadi.

8. Ta'lim jarayonida ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda mashqlar majmuasi va topshiriqlar muhim rol o'ynaydi, bunday mashqlar majmuasi va topshiriqlardan chet tilini o'qitish jarayonida foydalanish samarali natijalarni beradi.

9. O'qitishning asosiy mezonlari ikkinchi chet tili (nemis tili) o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi hamda malaka va ko'nikmalari yordamida ko'rib chiqildi va ushbu kompetensiyalardan o'quv jarayonida foydalanishda nemis tilidagi malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mohiyati ochib berildi.

10. Tadqiqot ishi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishining maqsadi, vazifalari, metodlari, tashkil etish ishlari aniqlandi va matematik-statistik tahlil qilindi.

11. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish samaradorligini tekshirish maqsadida Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Mazkur jarayonda Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universitetining Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishida tahsil olayotgan 2 va 3-bosqich, jami 316 nafar respondent-talabalar qatnashdilar.

12. Tajriba-sinov ishlari natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi baholarning o'rtacha ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 14 % ga yuqori ekanligi matematik-statistik tahlillar orqali aniqlandi va o'z isbotini topdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

БЕГМАТОВ КУВОНЧБЕК МУХТАРОВИЧ

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ
(на примере немецкого языка)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (немецкий язык)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована под номером B2021.2.PhD/Ped2531 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте www.samdchti.uz и по адресу www.ziyounet.uz Информационно-образовательного портала «ZiyoNet».

Научный руководитель: Тухтасинов Илхомжон Мадамшинович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Лутфиллаев Махмуд Хасанович
доктор педагогических наук, профессор
Сайдалиев Сайдумар Сайдалиевич
кандидат педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Узбекский государственный университет
мировых языков

Защита диссертации состоится 21 июля 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, дом 93 Тел.: (+99866) 238-29-37; Факс: (+99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрировано под № 61584). (Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, дом 93 Тел.: (+99866) 238-29-37)

Автореферат диссертации разослан 11 июля 2023 года.
(Реестр протокола рассылки № 82 от 10 июля 2023 года).



Д.А.Киселёв
Заместитель председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

Г.К.Мирсанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

Ш.С.Сафаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Укрепление и развитие международных связей в условиях глобализации в мире повысило интерес и востребованность профессионально ориентированного обучения иностранным языкам и профессиональной компетенции и профессиональной квалификации преподавателей. В связи с этим в таких странах мира, как Великобритания, Германия, Япония, Россия, в несколько раз возрастают требования, предъявляемые обществом к общекультурному, межкультурному и филологическому уровню подготовки преподавателей иностранных языков, и потребность в совершенствовании методов их профессиональной подготовки. В связи с этим особое внимание уделяется подготовке квалифицированных педагогов, в полной мере выполняющих основные задачи образования, в том числе высокой профессиональной компетентности. В процессе повышения спроса на специалистов, свободно владеющих иностранными языками, важно внедрять передовые методы обучения специалистов высшей школы, проводить исследования, направленные на совершенствование профессиональных знаний, навыков и умений преподавателей, их профессиональных навыков.

В мировом опыте регулярно решаются проблемы определения содержания и сущности профессиональной коммуникативной компетентности. Методы научного исследования, имеющие научную ценность и практическую значимость, направленные на выполнение поставленных задач, используются для решения проблемы формирования профессионально-коммуникативных компетенций преподавателей иностранных языков, профессионально-ориентированные материалы, апробированные в филологических вузах определяют уровень сформированности, педагогическая практика, профессионально-педагогическое мастерство. Все это составляет проблему формирования профессиональной компетентности преподавателя иностранного языка в вузе в соответствии с требованиями современного общества и показывает необходимость проведения научных исследований в этой области.

В нашей стране особое внимание уделяется формированию и развитию профессиональной компетенции преподавателей, способствующих реализации комплексной системы обучения иностранным языкам, направленной на подготовку высококвалифицированного, современно мыслящего молодого поколения. “Всем нам ясно, что репутация учителя – это прежде всего репутация нации, всего народа. Поэтому в последующие годы мы проводим огромные реформы, чтобы усилить роль и влияние учителей и наставников в жизни нашего общества, организовать систему образования, исходя из требований времени”¹¹. В частности, применение зарубежного опыта к образовательному процессу, совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение в образовательный процесс

¹¹ Поздравление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзияева учителям и наставникам Узбекистана, <https://president.uz/uz/lists/view/5569>, от 29 сентября 2022 г..

принципов индивидуализации, совершенствование научно-практических основ формирования профессионально-коммуникативной компетентности педагогов в процессе обучения немецкому языку как второй иностранный язык является важным.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, УП-60 от 28 января 2022 г. “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в постановлениях ПП- 2909 от 20 апреля 2017 г. “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП -3151 от 27 июля 2017 г. “О мерах по дальнейшему расширению участия сфер и отраслей экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием”, ПП -3775 от 5 июня 2018 г. “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, ПП -5117 от 19 мая 2021 года “О мерах по выводу на качественно новый уровень популяризации обучения иностранным языкам в Республике Узбекистан”, ПП-61 от 24 декабря, 2021 “О мерах по предоставлению финансовой самостоятельности государственным высшим учебным заведениям” и других нормативно-правовых документах, связанных с этой сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям научно-технологического развития Республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетного направления научно-технологического развития Республики: 1. “Формирование и внедрение системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства”.

